



**MILLIY GVARDIYA VA FAVQULODDA VAZIYATLAR
VAZIRLIGINING FUQARO MUHOFAZASI SOHASIDAGI
VAKOLATLARINING HUQUQIY ASOSLARI**

Raimqulov Sherzod Zokir o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Magistratura tinglovchisi, kapitan

Annotatsiya. Maqolada amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligining fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlari hamda hamkorlikda favqulodda vaziyatlarni oldini olish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Milliy gvardiya, favqulodda holat, fuqaro muhofazasi.

Аннотация. В статье анализируются компетенции Национальной гвардии и МЧС в сфере гражданской защиты, а также вопросы предотвращения чрезвычайных ситуаций в соответствии с действующим законодательством.

Ключевые слова: Национальная гвардия, ЧП, гражданская защита.

Annotation. The article analyzes the competencies of the National Guard and the Ministry of Emergency Situations in the field of civil protection, as well as issues of preventing emergency situations in accordance with current legislation.

Keywords: National Guard, emergency, civil protection.

Insoniyat tarixida o‘tgan davr mobaynidagi sovuq urushlar, tinchlik davrlardagi qo’llanilgan zamонавиy qurollar, turli ko‘rinishdagi falokatlar va boshqa muammolar sodir bo‘lganligi hech kimga sir emas. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, XX asr poyonida xavfsiz hayotni ta’minlash masalalari eng dolzarb muammoga aylanib qolgan edi, chunki ishlab chiqarish jarayonining misli ko‘rilmagan yuksak taraqqiy etgan texnologiyalar bilan ta’minlanishi, tabiiy rivojlanishdagi ayrim noxush vaziyatlarning murakkablashuvi aholi salomatligi, atrof-muhit tozaligi va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga tahdid solib turdi. Shu sababdan ham O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardanoq eng muhim vazifalar qatoridan mamlakat aholisi va hududini turli xil favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasini ta’minlash masalalari o‘rin oldi. Fuqaro muhofazasi – umumdavlat mudofaa siyosataridan biri bo‘lib, u har qanday favqulodda holatlarda fuqarolarni, xalq xo‘jaligi tarmoqlarini muhofaza



qilishda, ularning bir maromda ishlashini ta'minlashda hamda qutqarish va tiklash ishlarini bajarishda katta ahamiyat kasb yetadi.

Fuqaro muhofazasi sohasidagi bugungi kundagi umumiyl vaziyat, boshqa vazirlik va idoralar qatori Milliy Gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligining mazkur sohasidagi vakolatlariga to'xtalib o'tishdan oldin, fuqaro muhofazasi tizimining tarixi, uning dastlabki bosqichlari haqida moziyga nazar tashlab o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 4-martdagi farmoniga binoan aholini va xalq xo'jaligi inshootlarini tabiiy ofatlardan muhofaza qilishning samarali tizimini tashkil yetish, Respublikada tabiiy va texnogen hususiyatli favqulodda vaziyatlarni oldini olish va oqibatlarini bartaraf yetish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasi negizida O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV) tashkil qilindi.

FVVning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishi asosan, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, fuqarolar hayoti va salomatligini muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlar yuz berganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollarda harakatlarni boshqarishning davlat tizimi (FVDT)ni tashkil yetish va uning faoliyatini ta'minlash, fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish, vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish, maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va hokozolarga qaratilgan.

O'sha davrda FFVning muvaffaqiyatli ish olib borishida mamlakatimizda yaratilgan kuchli huquqiy bazaning ahamiyati katta bo'lgan. Jumladan, favqulodda vaziyatlar masalasida O'zbekiston Respublikasining "Aholi va hududlarni tabiiy va texnogen hususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida" (1999-y.), "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi (2000-y.) Qonunlar, Respublika Prezidentining ikkita Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 30 dan ortiq qaror va farmoyishlarini aytish mumkin. Qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda Rossiya, AQSh, Germaniya, Fransiya, Ukraina va boshqa yetakchi davlatlarning fuqaro muhofazasi tizimini shakllantirish borasidagi tajribalari inobatga olingan.

Vaqt o'tishi sari, davr bilan hamohang tarzda fuqaro muhofazasi sohasi takomillashib bordi va zamon talablariga mos ravishda amaldagi qonun hujjatlarini yangilash va ularga o'zgartirishlar kiritish ehtiyoji yuzaga keldi. Shunday o'zgartirishlardan biri, ushbu sohada asosiy qonun hisoblangan, O'zbekiston



Respublikasining “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi Qonunidir. Yangi qonun loyihasining ishlab chiqilishidan ko‘zlangan maqsad harbiy harakatlar davrida yoki ushbu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan aholini va hududlarni muhofaza qilishda huquqiy munosabatlarni tartibga solish, fuqaro muhofazasi sohasidagi asosiy prinsiplarni, vazifalarni hamda tadbirlarni belgilash, davlat organlari va tashkilotlarining, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlarini qonuniy asoslantirish hamda fuqarolarning fuqaro muhofazasi sohasidagi huquq va majburiyatlarini aniq belgilashdan iborat edi.

Amaldagi qonunda aholini xavflardan himoyalanish usullariga o‘rgatish, ob’ektlarni xavflardan himoyalash harakatlari va usullariga tayyorlash, boshqaruv, xabar berish va aloqa tizimlarini tashkil qilish, ob’ektlarning barqaror ishlashini ta’minalash, aholini, moddiy va madaniy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish, fuqaro muhofazasi harbiy tuzilmalarining shayligini ta’minalash, aholini umumiy va yakka muhofazalanish vositalari bilan ta’minalash tadbirlarini o’tkazish, aholining hayot faoliyatini ta’minalash, radiatsion, kimyoviy va biologik vaziyat ustidan kuzatish va laboratoriya nazorati olib borish, qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni o’tkazish, zarar ko‘rgan hududlarda jamoat tartibini yo‘lga qo‘yish kabi vazifalar belgilangan.

Shu bilan birga, amaldagi qonunda boshqaruv organlari va ob’ektlarning rahbar xodimlarini fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash, aholini, davlat organlari va boshqa tashkilotlarni xavflar to‘g‘risida darhol xabardor etish, aholini fuqaro muhofazasi himoya inshootlariga vaqtincha joylashtirish, moddiy ashyolar va tarixiy-madaniy boyliklarni xavfsiz hududlarga ko‘chirish, fuqaro muhofazasi ob’ektlari, mol-mulki, kuchlari va vositalarini yaratish, moliyaviy va moddiy resurslarning davlat zaxira fondlarini shakllantirish, radiatsiyaviy, kimyoviy va biologik (bakteriologik) xurujlar, shuningdek boshqa ta’sirlardan zararlangan hududlar va mol-mulklarini zararsizlantirish, aholining sanitarni xavfsizligini ta’minalash kabi bugungi davr sharoitida dolzarb bo‘lgan vazifalar belgilanmagan edi.

Yangi Qonunda asosiy e’tibor vazifalar qamrovining kengaytirilishi bilan fuqaro muhofazasini ta’minalash, ushbu harakatlarda muhofazalash bo‘yicha aholini tayyorlash va ko‘nikmalarini oshirib borish, davlat organlari va tashkilotlarining fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlarini aniq belgilagan holda fuqaro muhofazasi tadbirlari bajarilishi samaradorligini oshirish, fuqaro muhofazasi ob’ektlari va mol-mulklariga bo‘lgan talablarni kuchaytirib, fuqarolarni ishonchli muhofaza qilish,



fuqaro muhofazasi qo'shnlari tarkibini belgilagan holda vazifalarni taqsimlash, fuqaro muhofazasi tadbirlarini to'liq amalga oshirish uchun moliyalashtirish tizimlarini yaratishga qaratildi.

Bundan tashqari, harbiy harakatlar davrida yoki ushbu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan muhofaza qilish bo'yicha Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Sog'liqni saqlash vazirligi, Transport vazirligi, Uyjoy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi va Davlat zaxiralarini boshqarish qo'mitalarining vakolatlari alohida moddalar bilan belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi. Jumladan tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda:

fuqaro muhofazasining tegishli rejalarini ishlab chiqadi va ularning amalga oshirilishiga rahbarlik qiladi;

xodimlar zamonaviy qirg'in vositalaridan himoyalanish usullariga va urush davri sharoitidagi harakatlarga tayyorlanishi va o'rgatilishini tashkil etadi;

zamonaviy qirg'in vositalari tahdid solganda va qo'llanilganda tarmoq xodimlarini muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshiradi;

urush davrida tarmoq va xalq xo'jaligi ob'ektlari barqaror ishlashini ta'minlash tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

tashkilotlarni xavfsiz zonalarga evakuatsiya qilish rejalarini ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etadi;

fuqaro muhofazasi moddiy-texnika, tibbiy va boshqa xil vositalar zaxiralarini yaratadi hamda ularning to'planishi, saqlanishi, yangilab borilishi va qo'llanishga shay holatda saqlab turilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

tarmoq fuqaro muhofazasi ahvoli to'g'risida belgilangan tartibda axborot taqdim etadi;

fuqaro muhofazasi sohasida mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

xabar berish tizimini, umumiyligi va yakka muhofazalanish vositalarini vujudga keltiradi hamda ularni doimiy shay holatda saqlaydi;

fuqaro muhofazasining holatini nazorat qilib boradi;

qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Yangi qabul qilingan "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi Qonuniga aynan yuqorida normalarning kiritilishi bugungi zamon talablarini hisobga olgan holda fuqaro muhofazasi tadbirlarini yanada takomillashtirish maqsadida milliy



qonunchilik hamda Rossiya, Belarus, Latviya, Moldova, Ukraina, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqa davlatlarning tajribalari asos qilib olingan.

Milliy Gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligining fuqaro muhofazasi sohasidagi hamkorligi natijasi avvalo fuqaro muhofazasi sohasida aholini tayyorlash, ilmiy-tadqiqotlar va bilimlarni targ'ib qilish ishlarini yangi bosqichiga olib chiqadi. Shuningdek, fuqaro muhofaza sohasida davlat organlari, Qurolli Kuchlar, huquqni muhofaza qilish organlari, mahalliy boshqaruv organlari, jamoat tashkilotlari va fuqarolar o'rta sidagi munosabatlarni yanada mustahkamlaydi, turli vaziyatlarda kuch va vositalardan oqilona va samarali foydalanish, zarur muhofazalanish ob'ektlari va mol-mulklarini yaratish, xavflardan zarar ko'rgan hududlarda rejalashtirilgan ish hajmlarini bajarish uchun yetarli kuchlarni tayyorlash va jihozlash, zarurat tug'ilganda mamlakatning barcha qutqaruv kuchlarini birlashtirish qobiliyatini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, hamkorlikda aholini xavflardan ogohlantirish va xabardor qilish masalalari zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tizimlariga integratsiya qilinishi natijasida aholini xavflardan barvaqt ogohlantirish va xabardor qilish samaradorligini yanada oshiradi. Aholi yashash hududlarini, o'ta muhim va toifalangan ob'ektlarni loyihalari va ushbu ob'ektlarni barpo etishda fuqaro muhofazasining muhandislik-texnik talablariga qat'iy rioya qilinishi ta'minlanadi. Milliy gvardiya tasarrufidagi o'ta muhim va toifalangan ob'ektlarda fuqaro muhofazasi mutaxassis (bo'limi) shtat lavozimlarini joriy etilishi natijasida ushbu sohaga yanada mas'uliyat bilan yondashgan holda e'tiborni kuchaytirilishi, mutaxassislar tomonidan tegishli hujjatlarni o'z vaqtida ishlab chiqilishi, ishchixizmatchilar bilan muntazam ravishda tayyorgarlik mashg'ulotlarini o'tkazilishi, mavjud muammolar va masalalar yuzasidan tegishli choralarini ko'rib borilishi va nazoratga olinishi ta'minlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Milliy Gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligining fuqaro muhofazasi sohasidagi hamkorligi fuqaro muhofazasi sohasida aholini, atrof-tabiiy muhitni, moddiy va madaniy boyliklarni harbiy harakatlar davrida yoki ushbu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish uchun muhim poydevori, O'zbekiston Respublikasining "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi Qonuni esa, mazkur hamkorlikning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.



ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi Qonuni. 26.05.2000 yildagi 80-II-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to‘g‘risida"gi Farmoni 04.03.1996 y. PF-1378-son.
3. M.Tojiyev, I.Ne’matov, M.Ilhomov // Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. O‘quv qo’llanma. 2005 y.
4. Yormuhammedov K. “Hayot faoliyati xavfsizligi”, T., 2001.